

«FOYDADA BO’LING» aksiyasining jismoniy shaxslar uchun shartlari:

- 2023-yil 12-iyundan 31-avgustgacha amal qiladi;
- 18 va undan katta yoshdagi **jismoniy shaxslarga** pasport yoki shaxsiy guvohnomaning asl nusxasi mavjud bo'lganda taqdim etiladi;
- Ushbu aksiya faqat Shartli ulanish modul TeleCARD (CAM Unified CI + Irdeto) (bundan keyin «Uskuna») abonent uskunasiga amal qiladi;
- aksiya ishtirokchilari 2020 yildan 2023 yil maygacha raqamli televideniye xizmatlariga ulangan mavjud ammo faol bo'lmagan abonentlardir;
- aksiyada ishtirok etish uchun abonent pullik raqamli televideniye xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini bekor qilish va ishlatilgan uskunani qayta sotib olish bo'yicha ariza to'ldirishi kerak;
- uskuna nuqsonsiz bo'lishi kerak;
- uskunadagi rasm aniq ifodalanishi kerak va u rasm faqat 20% eskirgan bo'lishi mumkin;
- uskunalar xizmat ko'rsatish markazi uskunaning ishlashi to'g'risida xulosa qilgandan keyingina Kompaniya balansiga qabul qilinadi, aks holda uskunalar qabul qilinmaydi va abonentga qaytariladi;
- uskunalar uchun qarzdor bo'lmagan, faol bo'lmagan abonentlarga taqdim etiladi;
- ishlatilgan uskunani qaytarilgani uchun 100 000 so 'm miqdoridagi pul mablag'i abonentning bank kartasiga 15 ish kuni ichida o' tkaziladi;
- AKSIYADA ishtirok etgan abonent kompaniyaning rasmiy sayti www.uzdtv.uz da ko'rsatilgan aksiyaning barcha shartlari bilan tanishganligini va hech qanday e'tirozi yo'qligini tasdiqlaydi;
- "UZDIGITAL TV»MCHJ rasmiy savdo va xizmat ko'rsatish ofislarida aksiyada ishtirok etishingiz mumkin.